

O'ZBEKISTON TOMONIDAN AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI IQTISODIYOTIGA KIRITILADIGAN INVESTITSİYALAR: KELAJAK ISTIQBOLLARI HAMDA KUTILAYOTGAN IQTISODIY IMKONIYATLAR

Doniyev Shahob O'tkir o'g'li

Qarshi Davlat Universiteti, Iqtisodiyot fakulteti,

Iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

E-mail: shahobdoniyev@gmail.com (+998973502306)

ORCID: 0009-0007-8616-8144

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda O'zbekiston Respublikasining Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarining hozirgi holati, asosiy yo'nalishlari va kelgusidagi rivojlanish istiqbollari ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotlarimiz davomida ikki davlat o'rtasidagi investitsion hamkorlik, O'zbekiston kapitalining AQSh bozoriga kirish mexanizmlari, shuningdek investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanish, xalqaro aloqalarni diversifikatsiyalash va milliy biznes subyektlarining raqobatbardoshligiga ta'siri tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar. Xorijiy investitsiyalar, investitsion faoliyat, iqtisodiy hamkorlik, kapital oqimi, xalqaro investitsiyalar, iqtisodiy integratsiya, investitsion muhit, strategik rivojlanish, investitsion jozibadorlik.

KIRISH.

Globalizatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi hamda xalqaro iqtisodiy integratsiyaning jadallashuvi sharoitida davlatlar o'rtasidagi investitsion hamkorlik iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Xususan, kapital harakatining erkinlashuvi, transmilliy iqtisodiy aloqalarning kengayishi va investitsiya bozorlarining diversifikatsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish faoliyati ham bosqichma-bosqich shakllanib, milliy iqtisodiyotning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy liberallashtirish siyosati, eksport salohiyatining kengayishi hamda milliy kompaniyalarning xalqaro bozorlarga chiqishi mamlakatning tashqi investitsion faoliyatini faollashtirdi. Ayniqsa, Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyoti dunyodagi eng yirik va innovatsion bozorlardan biri sifatida O'zbekiston investorlarini o'ziga jalb qilmoqda. AQSh bozorining rivojlangan moliyaviy infratuzilmasi, yuqori texnologiyalar sektori, barqaror huquqiy tizimi hamda investitsiyalarni himoya qilish mexanizmlari o'zbek kapitali uchun istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston tomonidan AQSh iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalar nafaqat

kapital eksporti jarayonini ifodalaydi, balki texnologiyalar transferi, boshqaruv tajribasi almashinuvi va xalqaro biznes aloqalarining mustahkamlanishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayon ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bilan birga, O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini jadallashtiradi. Shu bilan birga, mazkur investitsion hamkorlikning rivojlanishi bir qator iqtisodiy, institutsional va moliyaviy omillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning istiqbollari hamda kutilayotgan iqtisodiy samaralarini ilmiy jihatdan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, investitsiya yo'nalishlari, risk omillari, institutsional muhit va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash mazkur tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ushbu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga investitsiya kiritish jarayonlari ham alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillar davomida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ochiq hamda pragmatik tashqi iqtisodiy siyosat xalqaro investitsiya munosabatlari uchun yangi bosqichni boshlab berdi.

An'anaviy ravishda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan siyosat bilan bir qatorda, milliy kapitalimizning xorij bozorlarga, shu jumladan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga yo'naltirilishi O'zbekiston iqtisodiy strategiyasining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, mamlakatimiz odatda chet el investitsiyalarini iqtisodiyotimizga jalb qilish siyosatini olib borar edi, lekin ushbu qadam bilan O'zbekiston o'zini ilk marotaba investor davlat sifatida namoyon qilmoqda. AQSh iqtisodiyoti yuqori darajadagi zamonaviy texnologiyalar, rivojlangan moliya bozorlari hamda qulay investitsion muhitga ega bo'lganligi tufayli O'zbekiston investorlarining xalqaro miqyosdagi ishtirokini kengaytirish borasida katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Mazkur maqolaning maqsadi - O'zbekiston tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning hozirgi holati, kelajak istiqbollari hamda kutilayotgan iqtisodiy imkoniyatlarini tahlil qilish, shuningdek, ikki tomonlama investitsion hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Xalqaro investitsiyalar zamonaviy global iqtisodiyotning muhim tarkibiy elementi bo'lib, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda xorijiy investitsiyalar nafaqat kapital harakati, balki texnologiyalar transferi, boshqaruv tajribasi almashinuvi hamda innovatsion rivojlanish vositasi sifatida talqin qilinadi [1]. Xalqaro investitsiyalar nazariy asoslarini izohlashda J. Dunning tomonidan ishlab chiqilgan eklektik paradigma (OLI modeli) keng qo'llaniladi. Ushbu modelga ko'ra, kompaniyalar xorijiy bozorlarga investitsiya kiritishda mulk ustunligi, joylashuv afzalligi va ichki boshqaruv samaradorligiga tayanadi [2]. Mazkur yondashuv rivojlanayotgan mamlakatlar kompaniyalarining AQSh kabi rivojlangan iqtisodiyotlarga kapital kiritish motivlarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy tadqiqotlarda kapital eksporti

jarayoni endilikda faqat rivojlangan davlatlarga xos emasligi, balki transformatsion iqtisodiyotga ega mamlakatlar ham xalqaro investorlarga aylana boshlagani ta'kidlanadi [3].

Bu jarayon iqtisodiy liberallashtirish siyosatini amalga oshirayotgan O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, tashqi investitsiyalar milliy kompaniyalarning global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuvini tezlashtirib, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi hamda innovatsion rivojlanishni rag'batlantiradi [4]. Ayniqsa, rivojlangan iqtisodiyotlarga investitsiya yo'naltirish orqali kompaniyalar ilg'or texnologiyalar va boshqaruv standartlarini o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tahlillarida rivojlanayotgan davlatlarning AQSh iqtisodiyotiga investitsiya kiritishi kapitalni diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni oshirish hamda valyuta risklarini kamaytirish vositasi sifatida baholanadi [5].

AQSh iqtisodiyoti yuqori institutsional barqarorlik va rivojlangan moliyaviy infratuzilma bilan investorlar uchun jozibador bo'lib qolmoqda. AQSh iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar tarkibi bo'yicha tadqiqotlar investitsiyalarning asosiy qismi yuqori texnologiyalar, moliyaviy xizmatlar, energetika va innovatsion startap sektorlariga yo'naltirilishini ko'rsatadi [6]. Bu esa yangi investor davlatlar uchun yuqori daromadli imkoniyatlarni shakllantiradi. Markaziy Osiyo iqtisodiyotlari bo'yicha ilmiy ishlarda O'zbekistonning iqtisodiy ochiqlik siyosati va investitsiya muhitining yaxshilanishi milliy kapitalning xalqaro bozorlarga chiqishiga zamin yaratgani qayd etiladi [7]. Xususan, tashqi investitsiyalar mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlash va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qiladi. UNCTAD hisobotlarida investitsiya eksporti milliy kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalarni jalb qilish va global iqtisodiy tizimda faol ishtirokni ta'minlash omili sifatida baholanadi [8].

Shu jihatdan O'zbekiston tomonidan AQSh iqtisodiyotiga investitsiya kiritish istiqbollari strategik ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning rivojlangan iqtisodiyotlarga investitsiya kiritishi uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, bilim transferi va kapital samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [9]. Biroq O'zbekiston investitsiyalarining AQSh iqtisodiyotidagi sektorlar kesimidagi imkoniyatlari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan bo'lib, mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga yo'naltirilayotgan investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni, rivojlanish tendensiyalari hamda istiqbolli imkoniyatlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik tahlil usullarining uyg'unligi ta'minlandi. Tadqiqotning nazariy asosini xalqaro investitsiyalar nazariyasi, kapital harakati konsepsiyalari, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) modeli hamda global iqtisodiy integratsiya tamoyillari tashkil etdi. Ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda investitsiya jarayonlariga

oid zamonaviy ilmiy qarashlar tizimli ravishda o'rganildi. Maqolamizda yoritilayotgan mavzuni tadqiq qilish jarayonida tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, ta'sir etuvchi omillar tahlili, kompleks yondashuv, induksion va deduksion tahlil usullari, ekspert tahlili, ko'p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, sifat hamda miqdor tahlili va shu kabi ko'plab tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari, ochiq iqtisodiy ma'lumotlar bazalari hamda ilmiy maqolalar tashkil etdi. Olingan natijalar iqtisodiy-mantiqiy tahlil asosida umumlashtirilib, investitsion hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJA.

Mazkur tadqiqotlarimiz doirasida davlatimiz tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar bo'yicha mavjud holatning har bir yo'nalishi tahlil qilindi, shuningdek, har ikki davlat tomonidan savdo-investitsiya hamkorligining hozirgi paytdagi ko'rsatkichlari va kelajakdagi istiqbollarning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib o'tildi. Tahlillarimiz quyidagi yo'nalishlarda olib borildi:

Tahlillarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda o'zining barqaror o'sish sur'atlariga erishmoqda va ushbu jarayonda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha 2024-yilda O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti sezilarli o'sdi va bu o'sish 6,5 % atrofida bo'ldi. Shu bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajmi 36 mlrd dollarni oshirib, yalpi investitsiyalarning mahalliy mahsulotdagi ulushi 30 % dan yuqori darajaga yetdi. Mana shu natijalar mamlakatimizning investorlar uchun jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.


1-jadval³⁷

O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar va ularning Yalpi-ichki Mahsulot(YaIM) hajmida tutgan o'rni tahlili (yillar kesimida)

Yillar	YaIM hajmi(mlrd. dollar hisobida)	Investitsiyalar hajmi(mlrd. dollar hisobida)	Investitsiya-larning YaIM dagi ulushi (foiz hisobida)	YaIMning aholi jon-boshiga to'g'ri kelishi (dollar hisobida)
2021	77,3	30,7	39,8	1983,4
2022	90,1	35,5	39,4	2254,3
2023	102,6	38,3	37,4	2495,6
2024	115,0	38,9	33,7	3092,7
2025	145,0	46,25	31,9	3991,8

Ushbu jadvaldan ham ko'rishimiz mumkinki, mamlakatimizga kiritilgan investitsiyalarning hajmi hamda ularning YaIMda tutgan ulushi (foizlarda) anchagina salmoqqa ega ekanligidan dalolat beradi.

³⁷ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra muallif ishlanmasi



1-rasm. 2021-2025-yillarda O'zbekistonda YaIMning o'sish sur'atlari³⁸

Davlat Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasining yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 1303,7 trln so'mni hamda 2024-yilning mos davri bilan taqqoslaganda real o'sish sur'ati 7,6 % ni tashkil etdi.

O'zbekiston hamda AQSh o'rtasidagi investitsion va iqtisodiy hamkorlik doimiy ravishda va keng ko'lamda oshib bormoqda. 2024-yilga kelib esa ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi taxminan 881,7 mln dollarni tashkil etgan holatda oldingi yilning mos davriga nisbatan 15 % ga oshdi. Ushbu davr oralig'ida AQShdan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar hajmi 612,6 mln dollarni tashkil etdi. Bu investitsiyalar asosan yirik ishlab chiqarish sohalari, xizmatlar ko'rsatish, transport, energetika va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq qilishga yo'naltirilmoqda. Kelgusi yillarda kutilayotgan investitsion loyihalari va kelajak istiqbollariga to'xtaladigan bo'lsak, ikki davlat o'rtasida kelgusi yillarda investitsiya hamkorligi hajmini sezilarli darajada oshirish maqsadini ko'zlovchi kelishuvlarga erishish kutilmoqda.

AQSh prezidenti tomonidan e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston AQSh iqtisodiyotiga keyingi uch yil mobaynida 35 mlrd dollar, o'n yillik davrda esa 100 mlrd dollar miqdorida investitsiya kiritishni rejalashtirganligini ma'lum qildi. Ushbu raqamlar strategik darajada ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradi va investitsiya oqimlarini sezilarli darajada oshiradi. Tahlillarimiz natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonning asosiy investitsiya yo'nalishlaridan biri bu innovatsiya va yuqori texnologiyalar sektori bo'lishi kutilmoqda. Kelgusida AQSh kompaniyalari bilan hamkorlida ishlab chiqiladigan texnologik loyihalar, shu bilan birga xizmatlar sohasidagi hamkorlik, mamlakatimizning raqamli iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan yo'nalishlar esa iqtisodiyot diversifikatsiyani kuchaytiradi va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishga yordam beradi. O'tkazilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston iqtisodiyotining so'nggi yillarda liberallasuvi, valyuta

³⁸ <https://stat.uz/uz/> O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra muallif ishlanmasi

siyosatining erkinlashtirilishi va xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar mamlakat kapitalining xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda.

Shuningdek, tahlil natijalarimizga ko'ra O'zbekiston investitsiyalarining AQSh iqtisodiyotiga kirib borishi natijasida har ikki davlat ham iqtisodiy manfaatlarini kuchaytirishini bildiradi. Xususan, AQSh uchun yana yangi investitsiya manbalarining paydo bo'lishi hamda ayrim sohalarida qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi ta'minlash bilan bir qatorda O'zbekiston uchun esa kapital diversifikatsiyasi, valyuta tushumlarining ko'payishi va xalqaro moliya bozorlaridagi ishonchlilik va barqarorlik darajasining oshishi kuzatiladi.

XULOSA.

O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarimiz va tahlillar asosida xulosa o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, O'zbekiston tomonidan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyotiga kiritilayotgan investitsiyalarning istiqbollari real sektorda hamda iqtisodiy jihatdan asoslangan hisoblanadi. Global iqtisodiyotda integratsiya jarayonlarining yanada chuqurlashuvi sharoitida O'zbekiston kapitalining rivojlangan davlatlar bozorlariga chiqishi milliy iqtisodiyotimizning barqaror va uzoq muddatli rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, investitsion jarayonlarning samaradorliginiyanada oshirish maqsadida bir qator takliflarni ilgari sursak maqsadga muvofiq bo'ladi. Avvalo, O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi investitsiyalarni himoya qilish va rag'batlantirishga qaratilgan ikki tomonlama huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Buning natijasida investorlar uchun xavflarni kamaytirish, shaffoflikni ta'minlash va ishonch muhitini mustahkamlash masalalari hal etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston tomonidan AQSh iqtisodiyotiga kiritiladigan investitsiyalar nafaqat moliyaviy foyda manbai, balki mamlakatimizning xalqaro iqtisodiy maydondagi mavqeini mustahkamlovchi muhim strategik omil sifatida qaraladi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan izchil va puxta siyosat kelgusidagi barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratmay qolmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- [1] Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. — Pearson, 2018.
- [2] Dunning J.H. Multinational Enterprises and the Global Economy. — Addison-Wesley, 1993.
- [3] Rugman A., Verbeke A. Global corporate strategy and foreign investment theory // Journal of International Business Studies, 2004.
- [4] World Bank. Global Investment Competitiveness Report 2023. — Washington DC, 2023.
- [5] International Monetary Fund. World Economic Outlook. — IMF, 2024.
- [6] U.S. Bureau of Economic Analysis. Foreign Direct Investment in the United States Report. — Washington DC, 2024.
- [7] Pomfret R. The Economies of Central Asia. — Princeton University Press, 2019.
- [8] UNCTAD. World Investment Report 2024. — United Nations, Geneva, 2024.

[9] Bortolotti B., Miracky W. Sovereign Wealth Fund Investment Patterns. — Oxford University Press, 2021.